

ATROF TABIIY MUHITGA YETKAZILAYOTGAN ZARAR VA UNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN HUQUQIY TARG'IBOT MASALALARI

*Ro‘zmatova Bonu – Yurisprudensiya ta’lim yo ‘nalishi I-boshqich talabasi
Andijon qishloq xo ‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Andijon, O‘zbekiston*

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirga kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lgan, tabiatga yetkazilayotgan zararlar va uni oldini olishga qaratilgan huquqiy masalalar to‘g‘risida boradi. Anglab turganizdek, ushbu muamo insoniyatga xavf solayotgan eng katta xatarlardan biri xisoblanadi. Shuning uchun dunyo xamjamiyati shu xatarni oldini olish uchun oxirgi yillarda keskin chora-tadbirlar ko‘rmoqda. Mana shunday chora-tadbirlar to‘g‘risida fikrlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: qonun, targ‘ibot, farmon, atrof-muhit, chora-tadbirlar, himoya qilish, huquqbazarliklar, jarima, jinoyat.

Biz yashab turgan dunyoda insonning asosiy ehtiyojlaridan biri nafas olishdir, bundan keyingi o‘rinda esa maishiy ehtiyojlar turadi. Yuqoridagi ehtiyojlarni to‘laqonli qondirilishi uchun tabiatning hissasi katta hisoblanadi. Shunday ekanligini bilsakda, bugungi kungacha biz bu tabiatga juda katta zarar yetkazdik. Masalan sanoat, korxona, fabrika va boshqarayotgan ulovlarimizdan chiqayotgan zaharli gazlar nafas olayotgan havoyimizni zararlarimoqda. Bu esa og‘ir oqibatlarga olib keladi. Anomal issiq, anomal sovuq, muzlar erishi, ichimlik suvi tanqisligi va hakozo. Ayni damda esa shuni jazolarni ham tortyapmiz. Buning oqibatlari og‘irlashmasidan oldin dunyo hamjamiyatlari tomonidan huquqiy targ‘ibot masalalari amalga oshirilmoqda. Jumladan bizning yurtimizda ham bu ishlar jadal sur’atlarda amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda atrof-muhitga zarar yetkazish bilan bog‘liq jinoyatlar og‘ir jinoyatlar toifasiga kiritiladi.

Shuningdek, hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo‘lish va chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlash uchun jarimalar miqdori sezilarli darajada oshiriladi. Ekoliya va atrof-muhitga zarar yetkazish, o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini nobud qilish yoki ularga shikast yetkazish bilan bog‘liq jinoyatlar og‘ir jinoyatlar toifasiga kiritiladi. Bu prezidentning 31-maydag‘i “Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida belgilandi. Qayta nomlangan Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga 1-sentabrga qadar Bosh prokuratura va Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini tayyorlash topshirildi. Xuddi shu sanaga qadar davlat o‘rmon fondiga kiritilmagan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga qo‘yiladigan moratoriyl talablarini buzganlik uchun ma’muriy jarima

miqdori 5 baravarga oshiriladi. Shu bilan birga, noqonuniy kesilgan daraxt o‘rniga uning kompensatsiyaviy daraxt ko‘chatlarini aynan daraxt kesilgan joyga ekish majburiyati belgilandi. Bundan tashqari, yuridik shaxslarga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan 300 baravarigacha bo‘lgan miqdorda moliyaviy jarimalar qo‘llanadi. O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan hayvonlarning noqonuniy ovlanishi oqibatida hayvonot dunyosiga yetkazilgan zarar uchun undirish summalari 10 baravarga hamda o‘simliklarning o‘sishdan to‘xtash darajasigacha shikastlantirish yoki yo‘q qilish bilan ularga yetkazilgan zararning undirilishi summalari 5 baravarga oshiriladi. Sanoat, maishiy va boshqa chiqindilarini to‘plash, tashish, joylashtirish, zararsizlantirish, saqlash, utilizatsiya qilish, qayta ishslash va realizatsiya qilish chog‘ida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzish, shuningdek, qattiq maishiy va qurilish chiqindilarini belgilanmagan joylarga tashlash hamda suyuq maishiy chiqindilarini to‘kkanlik uchun ma’muriy jarimalar miqdori 10 barobarga oshirgan holda qo‘llanadi. Shu bilan birga, yuridik shaxslarga nisbatan BHMning 100 dan 300 baravarigacha bo‘lgan miqdorda moliyaviy jarimalar joriy etiladi.

Suvlarni ifoslantirish yoki bulg‘atish, suv to‘plagich inshootlarida suvni muhofaza qilish rejimini buzish, shuningdek, suv obyektlariga oqindi suvlarni oqizishga yo‘l qo‘yilishi shartlari to‘g‘risidagi talablarini buzganlik uchun ma’muriy jarimalar miqdori 5 baravarga oshiriladi. O‘rmon fondi yerlarini noqonuniy berish va ulardan foydalanish bo‘yicha alohida ma’muriy va jinoiy javobgarlikni belgilaydi. Bundan tashqari, fond yerlarida bino-inshootlar va inshootlarni qurish bo‘yicha alohida jinoyat tarkibini kiritadi hamda uning sanksiyalarini sug‘oriladigan yerkarni o‘zboshimchalik bilan egallab olganlik uchun belgilangan sanksiyalarga tenglashtiradi. O‘zbekiston hududida atrof tabiiy muhit ifoslantirgani hamda chiqindilar joylashtirilgani uchun kompensatsiya to‘lovlari belgilanadi va qo‘llash tartibini qonun darajasida tartibga solinadi hamda berilgan imtiyozlar bekor qilinadi. Barcha o‘simlik va hayvonot dunyosidan foydalanish kvotalarini o‘rnatish masalasi qonun darajasida tartibga solinadi.

Sanoat, korxonalar tomonidan tabiatga yetkazilgan zararlar statatikasiga e’tibor qaratsak. 9 oy davomida Davlat ekologiya qo‘mitasi tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 37 mingdan ortiq qonunbuzarliklar aniqlandi. Tabiatga yetkazilgan zarar hajmi 15 mlrd so‘mdan ortiq deb baholanmoqda. 22 holatda jinoyatchilarga nisbatan jinoiy ish qo‘zg‘atilgan. 1457 ta ish bo‘yicha to‘plangan hujjatlar 11,7 mlrd so‘mlik jarima va zararni undirish uchun tegishli idoralarga o‘tkazilgan. Qo‘mita xabariga ko‘ra, 60 mingdan ortiq korxona va fuqarolarga sohaga oid profilaktika tadbirlari o‘tkazilgan. 22 ta holat bo‘yicha 8,8 mlrd so‘mlik da’vo ishlar yuzasidan qonunbuzarlik sodir etgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilishi bo‘yicha ish qo‘zg‘atilgan. Huquqbuzarlardan 337 dona hayvon va parranda,

1380,4 kg baliq, 49 009 kg dorivor va oziq-ovqatbop o'simliklar, 884,7 m³ o'tin, 91 ta ov qurollari, 95 ta aslahalar, 1290 ta to'r, 46 ta elektr qarmoq, 141 ta elektr arra, bolta va boshqa inventarlar olib qo'yilgan, shundan 70 ta ov quroli huquqni muhofaza qilish organlariga topshirilgan. Ko'rib turganizdek, ushbu statistika, vaziyatga jiddiyroq qarashga va ushbu muamolarni bartaraf etishga kerak ekanligini anglatadi. Shuning uchun prezidentimiz tomonidan qarorlar qabul qilinmoqda.

"O'zbekiston Respublikasining prezidentining 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 30.10.2019 yildagi PF-5863-son farmoni qabul qilindi.

a) 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiysi (keyingi o'rirlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va unda quyidagi chora-tadbirlar nazarda tutilsin:

atrof muhit obyektlarini (atmosfera havosi, suv, er, tuproq, yer qa'ri, bioxilma-xillik, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar) antropogen ta'sir hamda boshqa salbiy ta'sir qiluvchi omillardan saqlash va sifatini ta'minlash; ekologik jihatdan eng kam xavf tug'diruvchi materiallardan, mahsulotlardan, ishlab chiqarish obyektlari va boshqa obyektlardan ustuvor darajada foydalanish; qo'riqlanadigan tabiiy hududlarni kengaytirish; zaharli kimyoviy va radioaktiv moddalardan ekologik xavfsiz foydalanishni ta'minlash; chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishning ekologik xavfsiz tizimini takomillashtirish; aholining ekologik madaniyatini shakllantirish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining shaffoflik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish;

b) 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini 2019 — 2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" (keyingi o'rirlarda — "Yo'l xaritasi") 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Belgilab qo'yilsinki, Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko'rsatkichlar va atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha tegishli davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan uch yil muddatga alohida-alohida tasdiqlanadigan "yo'l xaritalari" asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ushbu farmon sohadagi muamolarni bartaraf etishga sabab bo'ladi. Yuqorida statistika raqamlarni minimal darajaga tushiradi. Biz bu farmon yoki qaror uchun emas balki, o'zimiz uchun tabiatni asrashimiz kerak.

Chunki tabiat bizga ko'plab ne'matlarni yetkazib beradi. Shuning uchun ushbu tabiatdan oqilona foydalanishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston Respublikasining prezidentining 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 30.10.2019 yildagi PF-5863-son farmoni
2. <https://lex.uz/docs/>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/10/09/>
4. <https://daryo.uz/2019/07/04/>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/02/>